

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHKILOTLARIDA ICHKI NAZORAT TIZIMINI DASTURLASHTIRISH VA MUKAMMALLASHTIRISH YECHIMLARI

Quldosheva Xolisa Kamoliddin qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Moliyaviy tahlil” kafedrası katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Tadqiqot O‘zbekiston korxonalarida ichki nazorat tizimini samarali tashkil etish va dasturlash orqali boshqaruv sifatini oshirishga qaratilgan. Unda aktivlarning butligini ta’minlash, ma’lumotlar shaffofligini kuchaytirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqilgan. Trendli, strukturaviy va solishtirma tahlil usullari asosida ichki nazorat samaradorligini baholovchi takliflar ishlab chiqilgan. Yondashuv amaliyotda qo‘llash uchun mos bo‘lib, korxonalarda xatolik va tavakkal darajasini kamaytiradi.

Kalit so‘zlar: ichki nazorat tizimi, audit, moliyaviy nazorat, risk baholash, axborot ishonchliligi.

Аннотация

В исследовании рассматриваются пути эффективной организации и программирования системы внутреннего контроля на предприятиях Узбекистана. Основное внимание уделяется обеспечению сохранности активов, повышению прозрачности информации и укреплению финансовой устойчивости. С использованием трендового, структурного и сравнительного анализа предложены практические решения по оценке эффективности контроля. Подход адаптирован к реальной практике, снижает риски и ошибки в управлении.

Ключевые слова: система внутреннего контроля, аудит, финансовый контроль, оценка рисков, достоверность информации.

Abstract

This study explores effective organization and programming of internal control systems in Uzbek enterprises. It emphasizes asset protection, transparency of data, and strengthening financial stability. Using trend, structural, and comparative analysis, practical solutions are proposed for assessing control efficiency. The approach is applicable in practice, reducing managerial risks and operational errors.

Keywords: internal control system, audit, financial control, risk assessment, information reliability.

KIRISH

Korxonada boshqaruv hisobini tashkil etish jarayonida rahbariyat ichki nazorat tizimini tashkil qilishga ham alohida e’tibor qaratib o‘tishi lozim. Ichki nazorat tizimining qay darajada tashkil etilishi va doimo nazoratda bo‘lishi korxona

faoliyatidagi salbiy og‘ishishlarni oldini olib, korxona ertangi mavqeini mustahkamlab boradi. A.P. Aleksandrova nomidagi ilmiy-tadqiqot texnologik instituti Ichki nazorat va audit xizmati rahbari Novikova Lyubov Vasilevna o‘z maqolasida shunday deb yozadi: “Tashqi nazorat hech qachon ichki nazoratni almashtirmaydi. Ichki nazoratni tashkil etish tashabbuskori korxona egasi hisoblanadi. U asosiy manfaatdor tomon hisoblanadi. Vakolatli ichki nazorat biznesdagi yo‘qotishlarni sezilarli darajada kamaytirishi va kompaniya samaradorligini oshirishi mumkin. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kompaniyada samarali ichki nazorat tizimining mavjudligi egasiga o‘z aktivlarining harakatini kuzatish va ishning barcha bosqichlarini tezkor muvofiqlashtirish imkonini beradi[1,10]”.

Chunki mahsulotni ishlab chiqarish qanchalik mukammal ishlab chiqilsa, uning ertasi shunchalik mustahkam bo‘ladi, bu esa o‘z-o‘zidan sof raqobat sharoitida mahsulot raqobatbardoshligini oshirib qolmasdan, balki uning uzoq davr yashashini ta‘minlab ham beradi.

Birinchi marta 1999-yilda nashr etilgan Turnbull hisobotida ichki nazorat va uning qamrovi quyidagicha belgilandi:

"Tashkilotning siyosati, protseduralari, maqsadlari, xulq-atvori va boshqa jihatlari, ular birgalikda:

- O‘z maqsadlariga erishishda muhim xavflarga (operatsion, moliyaviy, muvofiqlik va boshqa xavflar) to‘g‘ri javob berishga imkon berish orqali tashkilotning muvaffaqiyatli ishlashiga hissa qo‘shadi. Bu shuningdek, aktivlarning xavfsizligini ta‘minlash va majburiyatlarni o‘z vaqtida aniqlash va boshqarishni o‘z ichiga oladi.
- Ichki va tashqi hisobotlarning sifatini ta‘minlash, bu o‘z navbatida ichki va tashqi manbalardan o‘z vaqtida, dolzarb va ishonchli ma‘lumotlar oqimini yaratish uchun zarur buxgalteriya tizimlari va jarayonlarini saqlashni talab qiladi.
- Amaldagi qonunlar va ichki siyosatlariga muvofiqligini ta‘minlaydi”[2,14,17].

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda, korxonaning qay darajada yuqori daromad olishi, unda boshqaruv hisobi hamda ichki nazoratning qay darajada tashkil etilganligiga bog‘liq desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Bundan tashqari, korxonada boshqaruv hisobiga oid vazifalarni moddiy javobgar shaxslarga qay darajada taqsimlanganligi ham ichki nazorat tizimining asosiy qismini tashkil qiladi. Ma‘lum bo‘lishicha, nazorat "teskari aloqa" rolini o‘ynaydi va kompaniyaning barcha biznes jarayonlarining maqsadli ishlashiga yordam beradi.

E‘tibor qaratadigan bo‘lsak, oxirgi vaqtlarda korxonalarning bankrotga uchrashi ham shuning natijasida desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. 2015-yildan beri 1-prezidentimizning qarorlariga asosan iqtisodiy nochor korxonalarni sog‘lomlashtirish ishlari olib borilmoqda. Bu ustuvor vazifa tijorat banklari zimmasiga yuklangan bo‘lib, ular tomonidan bankrotlikka yuz tutayotgan korxonalarni moliyaviy ta‘minlab berish chora-tadbirlari amalga oshirib kelinmoqda.

Ichki nazorat tizimi juda ko‘p omillar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, rossiyalik olimlar D.M. Kolodin va V.D. Andreeva tomonidan “Ichki nazorat korxona rahbariyati tomonidan tashkil etilgan chora-tadbirlar tizimidir va korxonada eng samarali amalga

oshirish maqsadida amalga oshiriladi, barcha xodimlar biznes operatsiyalarini amalga oshirishda o'z vazifalarini bajaradilar"[3,11,12] degan ta'rif berilgan.

Yana bir rossiyalik olim M.B. Melnik, A.A. Novosel'sev va boshqalar tomonidan "Ichki nazorat asosiy boshqaruv funksiyalaridan biri bo'lib, xo'jalik faoliyatini doimiy nazorat qilish va tekshirish tizimidir, ya'ni qabul qilingan qarorlarning to'g'riligi va samaradorligini baholash uchun zarur bo'lgan boshqaruv qarorlarini qabul qilish, og'ishishlarni aniqlash va ularni o'z vaqtida bartaraf etish; faoliyatining risklarini kamaytirish va ularni boshqarishni ifodalaydi"[4,18,19].

Ichki nazorat tizimi o'z o'rnida korxona moliyaviy salomatligini hamda iqtisodiy barqarorligini tartibga soluvchi ko'rsatkich desak, xato bo'lmaydi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot ishlab chiqarish korxonalarida ichki nazorat tizimini samarali tashkil etish va menejerlar qaror qabul qilishi uchun ishonchli va sifatli axborot ma'lumotlarini yetkazish tizimini ishlab chiqishdan iborat bo'lib, bu esa o'z navbatida korxona nafaqat mahalliy bozorda, balki jahon bozorida raqobatchi korxonalar ichida o'z o'rnini egallashi va saqlab turishi uchun xizmat qiladi. Tadqiqot davomida ichki nazorat tizimining asosiy metodlaridan trendli tahlil, strukturali tahlil, solishtirma tahlil, faktorli tahlil metodlari asosida ichki nazorat tizimining samaradorligi o'rganildi. Ilmiy asoslar, solishtirmalar keltirib o'tildi. Tadqiqot yakunida aniq xulosalar va amaliyotga tatbiq etish uchun mos bo'lgan takliflar ishlab chiqildi. Ushbu yondashuv ilmiy jihatdan asoslangan bo'lib, mulkchilik shaklidan qat'i nazar o'z faoliyatini yuritayotgan korxona va tashkilotlarning ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida qo'llash uchun yangicha yondashuvlarni o'z ichiga oladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Korxonaning samarali funksiyalashtirilganligi nazoratning qanday o'rnatilganligiga bog'liqdir. Ichki nazorat faqatgina xato va kamchiliklarni bartaraf etmasdan, balki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflardan ham ogohlantirib turadi. Ichki nazorat tizimi – bu belgilangan maqsadga minimal xarajat bilan erishishga yordam beruvchi zamonaviy boshqaruv tizimining muhim qismidir. Ichki nazorat tizimini tashkil qilish yangi tahrirdan chiqqan O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuniga muvofiq korxona rahbari zimmasiga yuklatiladi. Ichki nazorat tizimini korxona ichki audit, nazorat-taftish shaklida ham tashkil qilsa bo'ladi. Keling, ularni bir-biridan farqini quyidagi jadval orqali ko'rib chiqamiz:

1-jadval

Ichki nazorat tizimi, ichki audit xizmati va nazorat taftish xizmati tushunchalarining o'zaro farqi [3]

Xarakteristika	Ichki audit xizmati	Ichki nazorat xizmati	Nazorat-taftish xizmati
Maqsad	Korxona samaradorligini oshirish	Ichki nazorat samaradorligini tashkil qilish va saqlash	Resurslarning samarasiz foydalanishini aniqlash hamda jazo qo'llash

Xarakteristika	Ichki audit xizmati	Ichki nazorat xizmati	Nazorat-taftish xizmati
Asosiy buyurtmachilar	Direktorlar kengashi va aksiyadorlar umumiy yig'ilishi	Tizimli rahbariyat	Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi
Spetsifika	Biznes jarayonda tahlil va riskni aniqlash kelajagini rivojlantirish	Biznes jarayondagi butun bir tizim tahlili	Bo'lib o'tgan voqea hodisalarni qayta rivojlantirish

Umumiy hollarda aytadigan bo'lsak, nazorat-taftish boshqarmasi korxonadagi mavjud resurslarning samarali foydalanishi, saqlanishi hamda firibgarlik holatlarini aniqlash bilan shug'ullanadi.

Ichki nazorat tizimining vazifasi bo'lib esa ichki nazorat tizimini tashkil qilish yotadi. Ichki audit xizmati esa bu tizimning samaradorligini baholaydi. Ichki audit ichki nazorat tizimini baholash orqali korporativ boshqaruvdagi boshqaruv riskini kamaytiradi.

Agar korxonada ichki nazorat tizimi samarali tashkil qilingan bo'lmasa, ichki audit xizmati kamroq uning samaradorligini baholab, ko'proq e'tiborini aktivlarning saqlanishi, ularning samarali foydalanishi hamda firibgarlik holatlariga qaratadi. Bunday holatda ichki auditning bitta funksiyasi sifatida ichki nazorat tizimi vaqt doirasida o'sib boradi.

Ichki nazorat tizimi korxonaning butun bir biznes jarayonini qamrab olib, uning rejalashtirilishidan tortib, moliyaviy hisobotini tuzgunigacha bo'lgan jarayondir. Moliyaviy nazorat ichki nazorat tizimining muhim elementlaridan biri hisoblanib, buxgalteriya yozuvlari ishonchliligi hamda moliyaviy hisobotning tuzilishini nazorat qiladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning maqsadi yuqori darajada daromad olish hamda korxona faoliyatini sezilarli darajada yuqori mavqega ko'tarish hisoblanadi. Ichki nazorat tizimi esa buni ta'minlab beruvchi tizimlardan biri hisoblanadi. Faqatgina uni to'g'ri tashkil qilib olinishi rahbarga bog'liqdir. Ichki nazorat tizimini to'g'ri tashkil qilinishi uchun quyidagi elementlarning to'g'ri, aniq hamda o'z vaqtida tashkil qilinishiga e'tibor qaratish lozim:

- Axborotlarni to'plash tizimi mavjud xatolarni o'z vaqtida aniqlaydi;
- Amaldagi mas'uliyat tizimi har qanday vazifani boshdan oxirigacha yakka o'zi amalga oshirishga yo'l qo'ymaydi;
- Har qanday muomalalarni muvofiqlashtirish tizimi mavjud;
- Inventarizatsiya muntazam ravishda o'tkaziladi;
- Buxgalteriya hisobotlari va rejadani chetga chiqishlar tahlil qilinadi.

Agar har kunlik ish ichki nazorat ostida bo'lsa, daromadlar ko'payadi. Kundalik ish ishonchli bo'lsa, daromadni yo'qotish xavf-xatari ham pasayadi. Ichki nazoratning tuzilishi turli xil bo'lishi, korxona faoliyati, uning hajmi, EHM bilan jihozlanganligi, rahbariyatning shaxsan nazorat qila olish imkoniyatlari va ko'plab boshqa omillarga bog'liq.

Auditor ichki nazorat tizimini o'rganish va baholash jarayonini o'tkazish hamda hujjatlashtirishda quyidagi namunaviy shakllardan foydalanishi zarur:

- Maxsus ishlab chiqilgan testlar;
- Rahbar xodimlar va buxgalteriya xodimlarining fikrlarini aniqlash uchun namunaviy savollar ro'yxati;

- Maxsus blankalar va tekshiruv varaqalari, bloksxemalar va grafiklar;
- Kamchiliklar ro'yxati, bayonnomalar yoki dalolatnomalar.

O'zbekiston Respublikasi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonunida ichki nazoratga taalluqli qandaydir maxsus talablar yo'q. Shuning uchun auditor ichki nazorat tizimini baholashda ikkita omilga tayanadi:

1. Ichki nazoratning maqsadi korxona rahbariyati uchun ham, auditor uchun ham bir xil — buxgalteriya hisobotining ishonchliligi va obyektivligini ta'minlash;

2. Auditorlik hisobotining tahliliy qismida ichki nazorat holatini ekspertiza qilish natijalarini aks ettirish zarur.

Ichki nazorat tizimini baholashning asosiy maqsadi — auditni rejalashtirish, shuningdek auditorlik amallarining turlarini, o'tkazish vaqtini va hajmini aniqlash uchun puxta zamin yaratib, ularni auditorlik tekshiruvining dasturida aks ettirishdan iborat.

Auditorlik tekshiruvi dasturi moliyaviy hisobotdagi axborotlarning ishonchliligini tasdiqlashga qaratilgan amallar ro'yxatidan iborat. Har bir auditorlik amalining turi, o'tkazish vaqti va miqyosi aniqlanib, u moliyaviy hisobotning bir yoki bir nechta ko'rsatkichlari bilan bevosita bog'liq. Auditorlik amallarining yettita asosiy turi mavjud: qayta sanash, kuzatish, tasdiqlash, og'zaki so'rov, hujjatlarni tekshirish, nusxa ko'chirish va tahlil qilish amallari. Auditorlik amallarini o'tkazish vaqti turlicha bo'lishi mumkin: balans tuzgunga qadar yoki tuzilganidan so'ng. Bajariladigan amallar miqyosi ishlar hajmiga bog'liq bo'lib, ushbu amallarni safarbar qilish chog'ida bajarilishi mumkin.

Xabardor qilish zarur bo'lgan faktlar bu ichki nazorat tizimining sezilarli kamchiliklaridir. Ular shu bilan tavsiflanadiki, ichki nazorat tizimi ayrim elementlarining tuzilmasi yoki faoliyat ko'rsatishi, tekshiriladigan moliyaviy hisobotlarda katta xatolar yoki axborotlarning buzib ko'rsatilishi yuzaga kelishi mumkin va bu xatolar korxona xodimlari tomonidan o'zlarining kundalik vazifalarini bajarish chog'ida aniqlash ehtimolini pasaytirmaydi. Auditor negativ faktlarni maxsus izlashi lozim emas, ammo agar ularni aniqlasa, bu haqda rahbariyatga yozma yoki og'zaki bildirishi lozim.

«Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonunning 7-moddasiga muvofiq buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot, shuningdek ichki nazorat tizimini tashkil etish uchun xo'jalik yurituvchi subyektning rahbari javobgardir [4].

Ichki nazorat tizimi tuzilmasi uchta tarkibiy qismga bo'lingan:

3. Nazorat muhiti — korxonada ichki nazorat uchun qulay bo'lgan o'zaro xizmat munosabatlarini aniqlaydigan belgilar yig'indisidir;

4. Korxonadagi buxgalterlik hisobi tizimi — tegishli xo'jalik muomalalarini yozishga taalluqli hisob siyosati va amallardir;

5. Nazorat amallari — korxona xodimlari tomonidan bajariladigan maxsus tekshiruvlar [5].

Ushbu uchala tarkibiy qism o‘zaro bog‘liqlikda axborotlardagi jiddiy xatolarning oldini olish, aniqlash va tuzatishni ta‘minlaydi. Nazorat muhiti deganda xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbariyatining xabardorligi, ichki nazorat tizimini o‘rnatish va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan amaliy ishlari tushuniladi.

Nazorat muhiti quyidagi elementlardan iborat:

- Siyosat va boshqaruv uslublari
- Korxonaning boshqaruv tuzilmasi
- Direktorlar kengashi, xususan uning auditorlik komiteti faoliyati
- Boshqaruv funksiyalari va mas‘uliyatlarni taqsimlash uslublari
- Nazorat boshqaruv uslublari, shu jumladan ichki audit;
- Kadrlar siyosati va amaliyot
- Tashqi ta‘sirler (banklar tekshiruvi, soliq nazorati) [6,15].

Ichki nazorat tizimi samarali bo‘lishi uchun funksional mas‘uliyatlar yoki xizmat vazifalarining yetarli darajada taqsimlanishi juda muhimdir. Bu nazorat amallari samaradorligining muhim sharti hisoblanadi.

Bular quyidagilardan iborat:

- Xo‘jalik muomalalarini amalga oshirishga ruxsat etish. Bu vazifani xo‘jalik muomalalarini rasmiylashtirish huquqiga ega xodimlar bajaradilar. Ruxsat etish ma‘lum turdagi muomalalar (masalan, barcha turdagi sotish) ga taalluqli, umumiy yoki maxsus (masalan, muhim aktivni sotishga ruxsat etish) bo‘lishi mumkin.

- Xo‘jalik muomalalarini ro‘yxatga olish. Ko‘pchilik korxonalarda xo‘jalik muomalalarini yozish (hisob yuritish) va hisobot ishlari kompyuter yordamida bajariladi.

- Xo‘jalik faoliyatida korxona mablag‘larining saqlanishini ta‘minlash. Bunda korxonaga tegishli aktivlarga haqiqatda egalik qilish yoki ular ustidan nazorat o‘rnatish nazarda tutiladi.

- Schyotlarda aks ettirilgan summalarni va haqiqatda mavjud aktivlarni vaqti-vaqti bilan taqqoslab turish. Bu yerda aktivlarni muntazam inventarizatsiya qilish va tafovutlar aniqlangan hollarda tegishli choralarni qo‘llash tushuniladi.

Xizmat vazifalarining mos kelmasligi — bu shunday kombinatsiya bo‘lib, unda xatoga yo‘l qo‘ygan yoki axborotni buzib ko‘rsatgan xizmatchi o‘zining oddiy faoliyati chog‘ida bu faktlarni yashirishi mumkin. Vazifalar shunday taqsimlanishi kerakki, xizmatchilardan hech biri yuqorida sanab o‘tilgan to‘rtta funksiyaning ikki yoki undan ortig‘ini bajarmasligi lozim. Birinchi va to‘rtinchi funksiyalar boshqaruv, ikkinchi funksiya hisob, uchinchisi esa saqlash funksiyasi hisoblanadi. Bu funksiyalarni turli shaxslar va bo‘linmalar o‘rtasida taqsimlash ikkita afzallikka ega:

1. Ishlarni muvofiqlashtirish (bitta xo‘jalik muomalasining turli jihatlarini ko‘rib chiqish) hisobiga ataylab qilinmaydigan xatolarni aniqlash va to‘g‘rilash osonlashadi.

2. Axborotlarni buzib ko‘rsatish qiyinroq bo‘ladi, chunki bu ikki yoki undan ortiq ishchi shaxslarning til biriktirishini talab etadi.

Ruminiya olimlarining fikriga ko‘ra: “Boshqaruv nazorati ichki nazorat tizimi ostida jarayonlarni nazorat qilib boradi. Boshqaruv nazorati — bu boshqaruv jarayonida zarur bo‘lgan axborotlarni, qarorlarni qabul qilish uchun yetarli

ma'lumotlarning ishonchliligini va o'z vaqtidagiligi ta'minlab beruvchi jarayon va siyosatdir" [8,16].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ichki nazorat tizimini ham samarali tashkil etish va uning ijrosini ham nazoratga olish lozim bo'ladi. Ichki nazorat tizimi bo'yicha asosiy muammolardan biri normativ-huquqiy hujjatdagi mavjud kamchiliklar hisoblanadi. Normativ-huquqiy hujjatlarni qayta ko'rib chiqish, lozim bo'lsa, ularga tegishli o'zgartishlar kiritish hamda kerakli yozuvlarni kiritish lozim deb hisoblaymiz. 12-son auditorlik faoliyati milliy standartiga muvofiq, ichki nazorat tizimi 3 ta elementdan iborat deb yoziladi. Shu elementlar tarkibini quyidagi tartibda o'zgartirishni va har bir element bo'yicha alohida ichki nazorat tizimi samaradorligini aniqlashni kiritib o'tishni taklif qilamiz:

1. Nazorat muhiti va uning tashkiliy darajalari
2. Risklarni baholash mexanizmi va darajalari
3. Nazorat qilish tartibi va tamoyillari
4. Axborot va uning almashinuvi
5. Monitoring va uning natijalari

Bu elementlarning qonun hujjatlaridan joy olishi va ulardagi samaradorlik darajasining aniqlanishi ichki nazorat bo'yicha yanada e'tiborli va alohida yondashish lozimligini keltirib chiqaradi. Bu esa o'z navbatida tanlab tekshiruvda ham o'zini oqlab, auditorlik riskining yanada kamayishiga asos bo'ladi, deb o'ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Система внутреннего контроля, maqola. https://niti.ru/?page_id=4751
2. Определение и цели внутреннего контроля, maqola. <https://www.accaglobal.com/cis/ru/student/exam-support-resources/adfbr-learning-resources/introduction-to-finance-and-business/technical-articles/internal-controls.html>
3. Kolodin, D. M. (2017). Vnutrenniy kontrol: Prakticheskiye rekomendatsii. Moskva: Tekhnosfera. – 194 b.
4. Melnik, M. V., Panteleev, A. S. (2014). Reviziya i kontrol: Uchebnoye posobiye. Moskva: ID FVK-PRESS. – 520 b.
5. Kabashkin, V. A., Myshov, V. A. (2011). Povysheniye roli vnutrennego audita i kontrolya v usloviyakh rynochnoy ekonomiki. Mezhdunarodnyy bukhgalterskiy uchet, № 13, 36–46.
6. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun. 2016-yil 13-aprel, 7-modda.
7. 12-son Auditorlik faoliyati milliy standarti: Auditorlik tekshiruvlari jarayonida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini baholash.
8. Isroilov, B. I. Audit fanidan ma'ruza matnlar to'plami. – 150-bet.
9. Hurloiu, Lăcrămioara-Rodica, Burtea, E., Preda, B.-F. (2014). Organizing Inspections Regarding Managerial Internal Control and Preventive Financial Control. 21st International Economic Conference IECS-2014, 16–17 May, Sibiu, Romania, p. 276. www.sciencedirect.com

10. Tursunov, B. (2024). Analysis of the Industrial Sector in Ensuring the Financial Security of Textile Enterprises: Cluster Methods. *Gospodarka i Innowacje*, 49, 374–381.
11. Usmonov, B. (2025). Kapital aktivlarini baholashda Modilyani-Miller modelining ahamiyati. *Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari*, 5(1), 178–183.
12. Burkhanov, A., Tursunov, B. O. (2020). Main Indicators of Textile Enterprises' Financial Security Assessment. *Vlakna a Textil*, 27(3), 35–40.
13. Burkhanov, A. U., Tursunov, B. O., Uktamov, K. F., Imomov, J. O., Nosirov, J. T., Akbarova, B. (2023). Ways and Prospects of Rational Use of Production Capacity in Ensuring Financial Security in Textile Enterprises in the Conditions of Digital Economy Transformation. In *Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems*, 234–242.
14. Khalikulova, Y. (2025). Analysis of the Role of Leasing and Rental Transactions in the Activities of Enterprises and Organizations and Across Regions. *Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari*, 5(1), 240–245.
15. Burkhanov, A. U., Tursunov, B., Uktamov, K., Usmonov, B. (2022). Econometric Analysis of Factors Affecting Economic Stability of Chemical Industry Enterprises in Digital Era: In Case of Uzbekistan. In *Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems*, 484–490.
16. Khalikulova, Y. (2023). Iqtisodiyotimizda transport-logistika xizmatlari tashkil etilishi va uning rivojlanishi. *Raqamli iqtisodiyotda qulay biznes muhitini rivojlantirish yo'nalishlari*, 1(02), 122–126. <https://doi.org/10.47689/TSUE2022-pp122-126>
17. Usmonov, B. (2021). Ways of Effective Capital Management of Joint Stock Company. *International Finance and Accounting*, 2021(4), 5.
18. Qurbonazar o'g'li, O. S. (2025). Improving the Analysis of Joint-Stock Company Profitability Indicators. *International Journal of Management and Economics Fundamental*, 5(04), 45–50.
19. Omanov, S. (2021). Iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida ishlab chiqarish xarajatlari hisobining iqtisodiy mohiyati va asosiy jihatlari. *Iqtisodiyot va ta'lim*, (6), 72–78.